

OILAVIY MULOQOTDA BAHO SHAKLLARI

Nosirova Dilfuza Nabiyevna

*Andijon viloyati Yuridik texnikumi**yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi 3 chi darajali yurist*

Annotatsiya: *ushbu maqolada bolalar uchun oila deyarli butun dunyo, oilaviy qadriyatlar va urf-odatlar hayotning dastlabki yillarida nafaqat jismoniy dunyo, balki his-tuyg'ular dunyosi haqida ham bilimning asosiy manbai ekanligi va bolaning oilasida o'rganadigan har bir narsa o'zining dunyoqarashiga asos bo'lishi, shuning uchun baxtli oilalar jamiyat uchun sog'lom avlodning manbai hisoblanishi to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *bola, oila, dunyo, qadriyatlar, urf-odatlar, hayot, his-tuyg'ular, bilim, baxt, jamiyat, sog'lom, avlod.*

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur”.

Darhaqiqat, asrlar davomida o'z e'tirofini topgan va diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi.

Oila va oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalashdan boshlamog'imiz lozim. Oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir. Oila shakllarining o'zgarishi, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma'naviyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil etilgan.

Lekin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi. Madaniy qashshoq bo'lgan odam boy bo'lib qolsa, birdaniga ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarilib qolmaydi. Pedagog-olimlar mazkur mavzuning ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini tadqiq etib, oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rniga alohida e'tibor berib, oilaviy tarbiyani umumiy tarbiyaning bir qismi sifatidagi jihatini yoritishmoqda; psixolog olimlar oila va oilaviy munosabatlarga etno-psixologik jihatdan yondoshmoqdalar. Etnograf-tarixchilar ham oilaning kelib chiqishi va oilaviy munosabatlar madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq masalalarga to'xtalib, oilaviy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganganlar.

Oila turlarining demografik, ijtimoiy tuzilishlariga qarab bo'linishining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning oilaviy munosabatlar madaniyatiga ta'siri mavjud. Mamlakatimizda mavjud oilalarning aksariyati to'liq oilalardir. To'liq oila deganda ota-ona va farzandlardan iborat oila tushuniladi. Bu tipik oilaga xos xususiyatdir. Bunday oilalar, o'z navbatida, patriarxal, nuklear, mezalyanslarga bo'linadi. O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati yana

shundaki, hozirda o‘zbek oilalardagi katta patriarxal oila xo‘jaligi ham saqlanib qolgan. Bunda 2-3 avlod xo‘jaligi umumiy bo‘lib, ularning iqtisodiy birligining asosi hisoblangan oila mulki faqat oila boshlig‘i qo‘lida bo‘ladi va hamma unga bo‘ysinadi. Mana shu sababli ham qarindosh – urug‘larning quda-andachilik munosabatlari davom qilib kelayapti. Yaqin qarindoshlarning nikohi ham shu jumladandir.

Sharq va g‘arb oilalari xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilganimizda ovro‘pa oilalariga xos xususiyat – nikohsiz erkin yashashning keng tarqalishi, ajralishlarning ko‘payishi, tug‘ilishning kamayishi bilan izohlanadi. Ayrim G‘arb olimlari nikohni butunlay yo‘qotib, nikoh kishi erkinligini cheklab qo‘yadi, u inson tabiatiga zid narsadir deb hisoblaydilar. Albatta, bu noto‘g‘ri bo‘lib, insoniyat taraqqiyotiga ziddir.

Zamonaviy oilalarga xos ikkinchi xususiyat ularning nuklearligidir (Nuklear – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi “yadro” demakdir. Er-xotin va bolalardan iborat). Hozirda G‘arb sivilizatsiyasi ta‘sirida oilaning bu xili ko‘payib bormoqda. Bunday oilalarda qaynona va kelin yoki kelinlar alohida yashaganliklari uchun ular orasidagi nizoli munosabatlarning oldi olinadi, turmush tarzida ular bir-birlari bilan qadrliroq, mehr-shafqatliroq madaniy munosabatda bo‘lishadi. Bu masalaning ijobiy tomoni bo‘lib, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishiga olib keladi. Ota-onadan alohida yashayotgan kelin-kuyov musataqil hayotga, oila iqtisodiyotini rejalashtirishga, farzandlarni mustaqil tarbiyalashga o‘rganadilar. Oilaviy masalalarni dam olish, bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish kabilarda nuklear oilalar erkinlikka ega bo‘ladilar.

Hozirgi zamon oilasi «Monogam oila»lardan iboratdir. Biroq hozirgi zamon monogam oilasi ham oz navbatida bir-biridan tuzilishi, tarkibi, mohiyati va boshqa xususiyatlariga kora yana bir qator turlarga bolinadi. Hozirgi zamon oilalari-ning qanday turlarga ega ekanligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bilish, ularga xos muammolarni organish, oilaviy hayotda roy berishi mumkin bolgan noxushliklarning oldini olish imkonini beradi. Quyida shular haqida qisqacha toxtalib otamiz. Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga kora quyidagilarga farqlanadi: Toliqligiga kora: toliq, notoliq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar. Boginlar soniga kora: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bolgan) va kop boginli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila azolari birga yashovchi) oilalar. Bolalar soniga kora: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar. Turli mamlakatlarda bu mezonlar turlichadir. Masalan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda 3-4 bolali oilalar kop bolali oilalar hisoblanadi. Ozbekistonda bunday oilalar farzandlar soni ortacha bolgan oilalar sarasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Psixologik muvofiqlik va nikohdan qoniqish. Ye. Burgess, P. Vollin, L. Terman va M. Odema, G. Roland
2. Farzand tarbiyalash uslublari muammosi A.E. Lichko, 1979; A.A. Bodalev, A.A. Stolin, 1989; E.G. Eydemiller, V.V. YUstitskiy, 1999
3. <https://genderi.org/1-oilaviy-munosabatlar-psixologiyasi-psixologiyaning-bir-tarmo.html>

4. <https://uz.tierient.com/oilaviy-va-oilaviy-qadriyatlar/>
5. Nosirova, D. (2022). OILAVIY MULOQOT MOHIYATI VA YOSHLARNING OILA QURISHGA ZAMONAVIY MUNOSABATI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(22), 17-21.
6. Nabiyevna, N. D. (2022). The Essence of Family Communication and Historical Processes. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(3), 41-46.
7. Nosirova, D. N. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 272-276.
8. Nabiyevna, N. D. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLLARNING MUHIM AFZALLIKLARI.
9. Nosirova, D. (2022). OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA. *O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali*, 1(3), 19-23.
10. Nabiyevna, N. D. (2022). OILAVIY MULOQOT G'ARBDA VA SHARQDA. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(12), 265-269.
11. Nabiyevna, N. D. (2023). Quality Education is the Foundation of Our Future. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 229-233.
12. Nabiyevna, N. D. (2023). Validity of Problems of Intercultural Communication in the Modern Conditions. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(3), 34-39.
13. Nabiyevna, N. D., & Sobirovna, K. N. (2022). IMPORTANCE OF MODERN METHODS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *Conferencea*, 46-48.
14. Nosirova, D. N. (2022). FAN, IQTISODIYOT VA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, SUN'IY INTELLEKT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 923-927.
15. Nosirova, D. N. (2023). YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLIISH VA UNGA QARSHI KURASHISH. *Scientific progress*, 4(2), 141-144.
16. Nabiyevna, N. D. (2023). Human Value and the Future of Our People Depend on Quality Education. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 14-18.
17. Nosirova, D. (2023). TA'LIM SIFATINI OSHIRISH YANGI O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILIDIR. *Наука и технология в современном мире*, 2(8), 48-52.
18. Nosirova, D., & Nasirdinov, S. (2023). YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH VA ULAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLIISH. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(8), 50-52.
19. Nabiyevna, N. D. (2023). 30 APREL KUNI BULADIGAN REFERENDUMGA BEFARQ EMASMAN. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(4), 285-290

20. Nabieva, N. D. (2023). DEVELOPMENT OF COMPREHENSIVE IDEAS FOR THE INTRODUCTION OF PROPOSALS AND INNOVATIONS FOR THE IMPROVEMENT OF FOREIGN LANGUAGES, WIDE INVOLVEMENT OF INTERESTING AND INTERACTIVE METHODS ON FOREIGN LANGUAGES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 104-108.

21. Nabieva, N. D., & Muhammadaziz, D. (2023, April). MEN REFERENDUMGA BEFARQ EMASMAN. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 13, pp. 79-81).

22. Nabieva, N. D., & Madinabonu, K. (2023, April). THE SYSTEM OF PROGRAMS CARRIED OUT TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 136-139).

23. Nabieva, N. D. (2023). SAYLOV-2023. YANGI O'ZBEKISTON KELAJAGI-XALQ TANLOVIGA BOG'LIQ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(10), 1089-1092.

24. Nabieva, N. D. (2023). 2023-YIL 9-IYUL KUNI BO'LADIGAN SAYLOVDA FAHR BILAN SH. M. MIRZIYOYEVGA OVOZ BERAMAN. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(15), 224-227.

25. Nabieva, N. D. (2023). ZAMONAVIY JAMIYATDA OILAVIY QADRIYATLAR. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 294-298.

26. Nabieva, N. D. (2023). XORIJIY TILLARNI BILISH-DAVR TALABIDIR. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(29), 494-498.

27. Nabieva, N. D. (2023). ZAMONAVIY JAMIYATDA OILAVIY QADRIYATLAR. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 294-298.